

XITOIY TILIDA FE'L FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING TAHLILI

Xasanova Shaxzoda

Oriental universiteti o'qituvchisi

Orcid 0000-0001-6517-0252

E-pochta: xasanovashaxzoda@gmail.com

Annotatsiya: *Frazeologizm tilning boshqa odatiy so'zlardan farq qilishi va alohida adabiy til meyorlariga ega yaxlit, shuningdek o'zinig kelib chiqish tarixiga ega, bo'linmas turg'un birikmalardir. Xitoy va o'zbek tillari turli til oilalariga tegishli bo'lgani bois undagi leksik-frazeologik birliklar kelib chiqish nuqtai nazaridan farqlilik kasb etadi va bu ikki til orasida badiiy asarlarni tarjima qilishda tarjimondan o'ta ehtiyotkorlikni talab qiladi. Shunga qaramay frazeologik birliklar juda ko'p o'xshash xususiyatlarga ham ega. Shu bilan birga maqolada jahon tilshunosligida tadqiqot ishlari tarixiy-qiyosiy, sistem-struktur hamda antroposentrik yo'nalishlarda keng ko'lamda olib borilayotganligi til taraqqiyoti, unda yuz beradigan o'zgarishlarni tadqiq qilish imkoniyatiga ega ekanligi, har bir milliy tilda uchraydigan leksik-stilistik, frazeologik va grammatik birliklarni qiyosiy aspektda o'rganish orqali qiyoslanayotgan tillarning o'ziga xos ravishda tizimlashtirish, har ikkisi uchun umumiy va farqli jihatlarni aniqlash ham muhim ahamiyat kasb etishiga e'tibor qaratilgan.*

Nutqiy jarayonda fikrini bayon qilish uchun so'zlar yordamidagina emas, balki bir necha so'zlarning barqaror bog'lanishidan hosil bo'lgan birikmalardan foydalaniladi.

Kalit so'zlar: *fe'l frazeologizmlar, antroposentrik, ma'no butunligi, aforizmlar, iboralar, 成语.*

Fe'l frazeologizmlari tilning boshqa odatiy so'zlardan farq qilishi va alohida adabiy til meyorlariga ega yaxlit iboradir. Xitoy va o'zbek tillari turli til oilalariga tegishli bo'lgani bois undagi leksik-frazeologik birliklar kelib chiqish nuqtai nazaridan farqlilik kasb etadi va bu ikki til orasida badiiy asarlarni tarjima qilishda tarjimondan o'ta ehtiyotkorlikni talab qiladi. Shunga qaramay frazeologik birliklar juda ko'p o'xshash xususiyatlarga ham ega. Shu bilan birga maqolada tarixiy-qiyosiy, sistem-struktur hamda antroposentrik yo'nalishlarda keng ko'lamda olib borilayotganligi til taraqqiyoti, unda yuz beradigan o'zgarishlarni tadqiq qilish imkoniyatiga ega ekanligi, har bir milliy tilda uchraydigan leksik-stilistik, frazeologik va grammatik birliklarni qiyosiy aspektda o'rganish orqali qiyoslanayotgan tillarning o'ziga xos ravishda tizimlashtirish, har ikkisi uchun umumiy va farqli jihatlarni aniqlash ham muhim ahamiyat kasb etishiga e'tibor qaratiladi. Quyida bir qancha fe'l frazeologizmlarini ko'rib chiqishimiz mumkin. Shuningdek biz tadqiqotimiz obyekti sifatida MoYannning "Musallaslar mamlakatida" nomli asarini tanladik va bir qancha misollarni keltirib o'tamiz.

禁不住看了一下她¹¹。(Jīnbuzhù kànle yīxià tā.)

Beixtiyor unga (qizga) tikilib qoldi. Deb soʻzma-soʻz tarjima qilish mumkin. Yaʼni **禁不住看了 Jīnbuzhù kànle** tikilib qolmoq matnda aynan hayratlanmoq maʼnosida kelgan. Tikilib qolmoq nutq jarayoniga qadar ham tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud va mazmunan bir soʻz hayratlanmoq soʻzi ifodalagan maʼnoga teng keladi. Ikki va undan ortiq soʻzlarning oʻzaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud boʻlgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi¹². Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kirishlik.

2. Maʼno butunligi.

3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi. Asar yozilganda va tarjima qilinganda barqaror birikmalardan oʻrinli foydalanish nutq goʻzalligini oshiradi, shuning uchun ular nutqimiz koʻrki hisoblanadi.

Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga koʻra tor va keng maʼnoda tushunish mumkindir. Shunga koʻra barqaror birikmalar quyidagi guruhlariga boʻlinadi:

1) Tasviri ifodalar.

2) Iboralar (frazеologizmlar)

3) Maqol va maʼtallar.

4) Hikmatli soʻzlar (aforizmlar).

Iboralardan nutqda unumli foydalanish jarayonida tafakkur, hayol, xotira va soʻz, bilish qobiliyati rivojlantiriladi, chunki aytilgan fikrni chuqur tushunish imkoniyatini beradi.

Frazеologiya atamasi orqali, bir tomondan, soʻz birikmalarini oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimi, boshqa tomondan esa, maʼlum tilning barcha barqaror birikmalari majmui tushuniladi.¹³ Tilning lugʻat tarkibini nafaqat boshqa soʻzlar, balki barqaror soʻz birikmalari ham tashkil qiladi. Barqaror soʻz birikmalari boshqa soʻzlar bilan ibora tushunchasi vositasi vazifasida xizmat qiladi. Barqaror soʻz birikmalari oʻzida tobe munosabatda birikkan soʻzlarni namoyon etadi. Erkin birikkan soʻz birikmasi maʼlum fikrlarni ifodalash uchun har bir maʼlum nutq vaziyatlarining vazifasiga asosan tildagi muloqotlar davridagi mazkur tilning grammatik qoidalariga asoslanib yaratiladi. Erkin birikmaning umumiy maʼnosi qoʻllanilgan termin birikmani tashkil etgan har bir soʻz mazmunidan anglashiladi. Erkin birikma tarkibiga hokim soʻz va gapning mustaqil aʼzosi vazifasini bajaradigan tobe soʻz kiritilgan. Shunday qilib, erkin birikma oʻzida sintaktik bogʻlanishni namoyon etadi. Birikmadagi har bir bogʻlanishlarning tobelik munosabati birikmaning semantik mustaqilligini anglatadi va ular birlashgan holda turgʻun birikmalarni hosil qiladi. Barqaror soʻz birikmasi birikma tarkibidagi biror soʻzni

¹¹ 莫言。酒国 一页。

¹² Sh.Rahmatullayev "Oʻzbek tili frazeologik iboralarining izohli lugʻati" Toshkent – 1978, 112 – bet

¹³ A.K. Borovkov "Oʻzbek tilining adabiy talafuz lugʻati" Toshkent – 1984, 116 – bet

birikma ma'nosini buzmasdan o'zgartirish mumkin bo'lmagan qat'iy muayyan so'zlardan tashkil topgan bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki mazkur maqolada biz o'zbek va xitoy tillarida inson tana a'zolari bilan bog'liq iboralarning uslubiy xususiyatlarini kontekstlar yordamida uning muqobil versiyalarini ko'rib chiqdik va mos sinonim so'zlarni ishlatgan holda uni to'g'ri tarjima jarayoniga olib kirishni o'rgandik. Bunda biz iboralarni kontekstdan ajratib olib uning tarjimasini o'zbek tilidagi ekvivalentliklari va sinonimlari bilan yoritib berishga harakat qildik. Bundan tashqari gapda nimani va qaysi jarayonni ifodalab kelishi va qay uslubda talqin qilinishiga e'tibor berdik. Ta'bir joiz bo'lsa shuni ta'kidlab o'tish joizkiy frazeologizmlar inson hayotida, nutq madaniyatining yuzaga kelishida va uni jozibador qilishda juda katta ro'l o'ynaydi. Frazeologik birliklarning asosiy qismini esa inson tana a'zolari bilan bog'liq birliklar tashkil etadi. Mazkur birliklarni o'zaro sinonimik hossalarni o'rganib uni tarjima jarayoniga tadbiq qilish, tarjima jarayonini yanada yengillashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) Rahmatullayev Sh. "O'zbek tili frazeologik iboralarning izohli lug'ati" Toshkent – 1978, 112 – bet
- 2) Borovkov A.K. "O'zbek tilining adabiy talafuz lug'ati" Toshkent – 1984, 116 – bet
- 3) Primov A., Qodirova X. "Tilshunoslikning dolzarb muammolari" Urganch – 2019, 71 – bet
- 4) Большой энциклопедический словарь. Языкознание. – М.: Большая Российская энциклопедия, 1998. С. 559.
- 5) 徐宗才, 应俊玲. 外国人说熟语: 汉英对照. - 北京: 北京语言大学出版社, 2005.
- 6) 百科全书 www.baike.cn
- 7) Хасанова, Ш. (2023). ФЕЪЛ ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАРДА ВАРИАНТЛАНИШ (хитой ва ўзбек тиллари мисолида). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(23), 127-131.
- 8) Xasanova, S. (2021). Rus tilshunosligida frazeologizmlarning tadqiqi: rus tilshunosligida frazeologizmlarning tadqiqi. Журнал иностранных языков и лингвистики, 2(7).
- 9) Xasanova, S. (2022). XITOIY VA O 'ZBEK TILLARIDA FE'L FRAZELOGIZMLARINING ANTONOMIYA HODISASI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 29), 188-197.
- 10) Khasanova, S. A. Q. (2022). Analysis of verb phraseological units in chinese. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(5), 280-283.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

11) Shaxzoda, X. The development of story of the XVI XVII century and the specific style of Pu Sungling's work. *Academicia an international multidisciplinary research journal*. DOI, 10, 2249-7137.

12) Qizi, K. S. A. (2024). PHRASEOLOGICAL UNITS EXPRESSING THE SITUATION. *European International Journal of Philological Sciences*, 4(02), 16-18.

13) qizi Khasanova, S. A. (2024). PHRASEOLOGISMS RELATED TO THE WAY OF LIFE OF A PERSON. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 5(02), 19-22.

14) qizi Khasanova, S. A. (2024). VERB PHRASEOLOGISMS EXPRESSING POSITIVE AND NEGATIVE FEELINGS IN UZBEKI AND CHINESE LANGUAGES. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 6(02), 22-24.

